



**KIMYO-SANOAT KORXONALARIDA TEXNOGEN HALOKAT SODIR  
BO'LGANIDA FUQOROLARNI EVAKUATSIYA QILISH VA ZARARLANGAN  
BEMORLARGA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH**

**Z.A.Nurova**

*TTA Termiz filiali Tibbiy biologiya va gistologiya kafedra mudiri dotsent*

**Qilichev Jasurbek Fayzullayevich**

**Nomozova Kamola Nuriddin Qizi**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali davolash fakulteti talabasi*

**Qilichev Ibrohim Fayzullayevich**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi Radiatsion kimyoviy va  
biologik muhofaza yo'nalishi 4-bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** Kimyo-sanoat texnologiyalarida holokat yuz berganda ya'ni Cl2, NH3, Gidrozin va boshqa zaxarlovchi moddalarini ishlab chiqarilayotganda masalan Cl2 portlaganda qanday rang hosil qilishi, qanday shaklli, rangli bulut hosil bo'lishi va insonlar qayerga borishi kerakligini o'rganish.

**Kalit so'zlar:** Avariya, Kimyo sanoati, Zaxarli moddalar, Cl2, Gidrozin, ranglari, KTEZM

**Maqsad:** Kimyo-sanoat korxonalarida texnogen halokat sodir bo'lganida fuqorolarni evakuatsiya qilish va zararlangan bemorlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Avariya deganda bajariladigan ishning birdan to'xtab qolishi, yoki sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni izdan chiqishi, transportlarda va boshqa ob'yektlarda moddiy boyliklarni buzilishi, yo'q bo'lishi tushuniladi.

Avariyalarning kelib chiqishiga quyidagi omillar sababchi bo'lishi mumkin:

- Tabiiy ofat tufayli;
- Inshootlarni loyihalashda yoki uni qurishda yo'l qo'yiladigan sababli;
- Transport mexanizm, jihozlardan noto`g'ri foydalanganda;
- Agressiv moddalarini (portlovchi, tez alanganuvchi zaharli moddalarini) noto`g'ri saqlanishi va uni ishlatish qoidalarining buzilshi oqibatida;

Texnika xavfsizligi qoidalarining buzilishi va boshqalar. Mana shunday xatoliklar tufayli ishlab chiqarishlarda katta avariylar sodir bo'ladiki, oqibatda ko'pdan-ko'p insonlar jabrlanadi va moddiy boyliklar yo'q bo'lib ketadi. Ko'pincha kimyo, neftni qayta ishlovchi sanoat, qog'oz ishlab chiqarish sanoati, go'sht-sut, oziq-ovqat, metallurgiya, konchilik va boshqa sanoat korxonalarida avariylar tez-tez uchraydi. Ayniqsa kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar (KTEZM) ta'sirida bo'ladiyan avariylar: kimyo, neftni qayta ishlovchi qog'oz, selluloza, go'sht-sut, oziq-ovqat sanoati, suv tozalash inshootlarida hamda temir yo'llarda KTEZMni tashishda ko'p uchraydi.





KTEZM ko`rsatilgan konsentratsiyadan ortiq bo`lganda odamlarga, qishloq xo`jaligi hayvonlariga, tashqi muhitga kuchli ta`sir etib turli darajada shikastlantiradi. KTEZMlar qatoriga xalq xo`jaligida texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan ammiak, xlor, sulfat kislotasi, vodorod ftorid, azot, oltingugurt oksidlari va boshqalarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining rivojlanish surati tobora tez va bir- birini takrorlamagan xolda o'sib bormoqda. Barcha rivojlanish va barcha say harakatlar inson ehtiyojlarini qondirish yo'lida amalga oshiriladi. Hayot davom etar ekan inson ehtiyojlari tunganmasdir. Shunday ekan zamon yangilanish va ishlab chiqarishni ko'p miqdorda talab qilaveradi. Ishlab chiqarishning katta qismini kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar egallaydi. Ba'zi korxonalarda insonga kuchli ta`sir qiluvchi zaxarlovchi moddalar xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish zaxiralari katta miqdorda saqlanishi mumkin. Ushbu korxonalar kimyoviy xavfli ob'ekt hisoblanadi. Tabiiy ofat va texnogen buzilishlar tufayli korxonalarda avariylar sodir bo'ladi. Natijada kuchli ta`sirlovchi zaxarlovchi moddalar, saqlanayotgan idishlardan tashqi muhitga tushishi, kimyoviy ikkilamchi zaxarlanish o'choqlarining vujudga kelishi va odamlar orasida sanitar yo'qotishlarga sabab bo'ladi.

Xozirda kimyo korxonalarida asosan xlor, ammiak. Oshlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan ushbu moddalar foydaliligi bilan bir qatorda juda havfli hisoblanadi, xsusan xlorni oladigan bo'lsak.

Xlor moddasi jangovar maqsadlardan chetlashtirilgan bo'lsada, ishlab chiqarish korxonalarida xomashyo sifatida ishlatiladi. Masalan :suvni yuqumli kasallikkarning mikroblaridan tozalash uchun xlor amin vositasini ishlab chiqarishda foydalaniladi. Tashqi muhitga tushganda xlorli muhit hosil qiladi. Zichligi havodon kattaroq bo'lganligi sababli yir bag'irlab tarqalib, o'nqir-cho'nqirliklar va yirto'lalarga kirib qoladi. Kam va o'rta miqdordagi xlor gazi ko'zni achishtirib, og'riq paydo qiladi. To'sh suyagi ortida siquv sezgisi va og'riqni, tomoq qirilishini, ko'z yoshlanishi, quruq og'riqli yo'tal, ovoz paylari qisishini keltirib chiqaradi. Katta miqdordagi xlor gazi tez fursatlarda o'pkalardagi shishishga sabab bo'ladi. Jarayon bog'uvchi modda bilan zaxarlangandek kechadi. O'ta yuqori darajada odam es - xushini yo'qotadi va nafasning barxam topishi tufayli xayotdan ko'z yumadi. Xlor bilan zaxarlangan odamlarga birinchi tibbiy yordam sifatida gazniqob kiyish va toza joyga olib chiqish tavsiya etiladi.

Kimyo korxonalarida ammiak bilan texnogen halokat sodir bo'lsa bunday hollarda ammiak havodon yengilligi uchun tezroq havoga ko'tarilib ketadi, ammo dastlab suyiltrilgan holatda ammiak yer bag'ri bo'ylab ma'lum masofaga tarqaladi. Ammiak tarqalganda teri va ko'z shilliq pardasiga va shuningdek nafas yo'llariga kuchli ta`sir qiladi uning havfliligi qancha muddat joylarda saqlanip turishi va konsentratsiyasiga bog'liq. Ammiakning ko'p miqdori inson organizimiga tekkanda kuyish, Tomoq va bronxlarning shishishi va torayishi, yo'tal, o'pkada suyuqlik to'planishi mumkin





Ammiak boshqa ishqorlarga qaraganda ko'proq ko'zlarga kuchli ta'sir ko'rsatishga moyildir. Hatto past konsentratsi ham ko'zning tez achishishi xususiyatini keltirib chiqaradi. Gazning yuqori konsentratsiyasi yoki konsentrlangan ammoniy gidroksidi bilan aloqa qilish ko'zning sirt hujayralarining shishishi va qichishiga olib kelishi mumkin, bu vaqtinchalik yoki doimiy ko'rlikka olib kelishi mumkin. Yosh bolalar behosdan ammiakni istemol qilishi quşish, qorin og'rig'i, tez tez uchraydi. Ko'proq konsentrlangan ammiakni iste'mol qilish og'iz, tomoq, qizilo'ngach va oshqozonga jiddiy korroziy shikastlanishga olib kelishi mumkin. Avariya holati sodir bo'lganda imkon qadar zaxarlanganlarni toza hududga olib chiqish, zudlik bilan zararlangan kiyimlarini yechish kerak, suyiqlik tekkan joylar suv bilan yuvilishi imkon qadar sovunlab yuvish darkor.

Bolalar va qariyalarni yuvintirishda gipotermiya holatiga tushishi oldini olish issiq ko'palardan foydalanish kerak, ko'zga tekkanda suv bilan kamida 15 daqiqa yuvish kerak.

Agar ammiakni bexosdan yutish holati yuz bergan bo'lsa unda aslo quşishga majbur qilmaslik kerak. Bunday holatlarda ko'proq suv va sut istemol qildirish kerak shuningdek zaxarlangan hududdan imkon qadar shamolga qarama-qarshi harakat qilib tezroq uzoqlashish kerak. Sababi shundaki shamol kuchli ta'sir etuvchi zaxarlovchi moddani nisbatan harakatini sekinlashtiradi. Bu esa nafas olishni yaxshilaydi. va keyingi harakat uchun sharoitni yaxshilaydi

Albatta, bunday favqulodda vaziyatlarda avariya o'chog'idagi va unga yaqin bo'lgan atrofdagi fuqarolar jabrlanadi. KTEZMlar asosan insonlarga uning nafas organlari, terisi orqali ta'sir etadi. Ular umumiylar Zaharlovchi va holsizlantiruvchilarga bo'linadi. Agar avariya holatida bir qancha gazlar aralashmasi bo'lsa, izolyatsiyalovchi protivogazlardan foydalangan holda tezlik bilan zaharlangan o'choqdan odamlarni evakuatsiya qilish tadbirlari ko'rildi, avariya joyini tiklash ishlari olib boriladi. Birlamchi tiklash ishlarini tashkil etish:

KTEZM tarqalgan hududni o'rash (lokalizatsiya) qilish hisoblanadi. Avariyanı tiklash ishlarida qatnashadigan fuqarolar o'zları va boshqalarni bilishlari zarur. Ulardan har doim zaharlangan fuqarolarni shikastlangan hududdan olib chiqish, protivogazni boshqalarga kiydira bilish, sun'iy nafas berish, yurakni massaj qilish, zaharlangan ko'z terilarni neytrallash ishlarini bilishlari lozim. Buning uchun jamoa va shaxsiy himoya bositalari ularning turlari va foydalanish qoidalarini bilishlari zarur.

Fojiali hodisa va uning oqibatlari.

Fojiali hodisa- ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladigan falokat demakdir. Fojia turli xildagi inshootlarning buzilishi, moddiy boyliklarni yo'q bo'lib ketishi hamda odamlarning o'limi bilan sodir bo'ladi.

Masalan, 1986 yil 26 aprelda sodir bo'lgan Chernobil Atom elektr stansiyasidagi avariya natijasida atrof- muhitga radiaktiv chiqindilar tarqalgan. Natijada ko'plab odamlar nobud bo'lgan, 200000 aholi xavfsiz joylarga batomom ko'chirilgan. Bu fojiadan ko'rilgan moddiy ziyon 8 mlrd rublni tashkil etgan. Shuning uchun AESlarda





avariya sodir bo`lganligini eshitgan har bir fuqaro darhol jamoa saqlanish joylariga yashirinishi, yoki xavfsiz joyga shu zahotiyoy evakuatsiya qilinishi lozim. Shaxsiy himoya vositalarini kiyib, kerakli narsalarni: oziq-ovqat, suv, zarur hujjat, pul va boshqa buyumlarni olib, tezlikda evakuatsiya punktlariga yetib borishi kerak. Agar sharoit bo`lmasa uyda yoki ishxonadagi eshik va oynalar bekilishi lozim. Ma`lumki, g`ishtli uylar nurlanish darajasini 10 barobar kamaytiradi. Shuning uchun radiatsiyadan saqlovchi boshpanalar ko`pincha temir- betondan quriladi.

**Xulosa:** Har bir tibbiyot va Qurolli kuchlar safida hizmat qilayotgan kursantlar va talabalar birinchi tez tibbiy yordam ko`rsata bilishi lozim chunki bugungi kunda nafaqat kimyo sanoat korxonalarida yuz berishi mumkin bo`lgan portlashlar, birinchi tibbiy yordamga muhtoj bo`lgan bemorlarga ham o`zini beradigan birinchi tibbiy yordami bera olishi lozim bo`ladi.

Xulosa sifatida shuni takidlash joizki inson qolgan mavjudotlardan ongliligi bilan ajralib turadi, shundek ekan befarqlikni unitib asosiy maqsad o`zimiz va yaqinlarimizni farovonligi yo`lida harakat qilishimiz kerak. Buning uchun

Turli texnogen holatlarda Muhofazalanish chora tadbirlarini bilishimiz zarur. Respublikamiz xalq xo`jaligi tarmoqlarida zaharli moddalar ishlatiladi, saqlanadi, tashiladi. Agar tabbiy ofatlar, harbiy to`qnashuvlar natijasida kimyoviy zaharli moddalar atmosferaga tarqalishi mumkin. Natijada atrof-muhitni havoni zaharlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar turlari. Transport avariyalari va halokatlari. Kimyoviy xavfli ob`yektlardagi avariyalar. Yong`in – portlash xavfi mavjud bo`lgan ob`yektlardagi avariyalar. Zamonaviy qirg`in quollar, ularning ta`sir xususiyatl (buxdu.uz)

2.SANOAT KORXONALARINING ATROF MUHITGA TA"SIRI VA EKOLOGIK MUAMMOLARNING KELIB CHIQISHIDA ISHLAB CHIQARISHNING O"RNINI Q (znanio.ru)

3.<https://www.cdc.gov/TSP/MMG/MMGDetails.aspx?mmgid=7&toxicid=2>

4. o`res milliy ensklopediasi

5.<https://emergency.cdc.gov/agent/chlorine/basics/facts.asp>

6.FAVQULODDA VAZIYATLARDA TEZ TIBBIY YORDAM ASOSLARI Y. ALLAYOROV, Y. TOJIBOYEV

7.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ammiak>

8.<https://cheminfo.uz/xlor-haqida-malumot/>

